

“O‘zkimyosanoat” AJ ishga qabul qilish komissiyasining

2-sonli BAYONI

2023-yil 31-yanvar

Toshkent sh.

- Komissiya raisi:** - O.Mirtemirov – Komplayens xizmati boshlig‘i
- Komissiya a‘zolari:** - R.Abduraxmanova – Iqtisodiyot va biznesni rejalashtirish departamenti boshlig‘i, V.Aripov – Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig‘i, G‘.Abdullayev – ijro apparati kasaba uyushmasi raisi, J. Vafojev – yuriskonsult
- Komissiya kotibi:** - N.Mamedova – Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi bosh mutaxassisi

KUN TARTIBI:

Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi bosh mutaxassisi bo‘sh lavozimiga test sinovidan o‘tkazilgan nomzodlar natijalarini ko‘rib chiqish

(Mirtemirov, Abduraxmanova, Aripov, Abdullayev, Mirtemirov)

Komissiya 2023-yil 31-yanvar kuni Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi bosh mutaxassisi bo‘sh lavozimiga nomzodlar orasida o‘tkazilgan test sinovlari natijalarini o‘rganib chiqqan holda quyidagilarni

QAROR QILADI:

1. “O‘zkimyosanoat” AJ ijro apparatida mavjud bo‘lgan bo‘sh ish o‘rinlariga nomzodlarni test sinovlaridan o‘tkazish bo‘yicha nizomi talablariga ko‘ra Test sinovlari natijalari bo‘yicha:

- nomzod Zokirov Zafarjon Zokirovich 33 ta to‘g‘ri javobi, ya‘ni 66 ball to‘plaganligi uchun “qoniqarli” deb topilib, bo‘sh ish o‘rniga “noloyiq”;

- nomzod Azimov Saydullobek Hamidovich 21 ta to‘g‘ri javob, ya‘ni 42 ball to‘plaganligi uchun “qoniqarsiz” deb topilib, bo‘sh ish o‘rniga “noloyiq”;

- nomzod Axmedov Daniyar Sabirovich 49 ta savolga to‘g‘ri javob berib 98 ball to‘plaganligi uchun uning natijalari “a‘lo” deb hisoblansin (test sinovlari natijalari ilova qilinadi).

2. Alijonov Jonibek Doniyor o‘g‘li va Usmanov Sardor Davlatovichlar test sinovlarida ishtirok etmaganligi sababli nomzodlar ro‘yxatidan chiqarilsin (dalolatnoma ilova qilinadi).

3. “O‘zkimyosanoat” AJ Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi bosh mutaxassisi lavozimiga Axmedov Daniyar Sabirovich nomzodini ko‘rib chiqish uchun “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisiga tavsiya etilsin.

4. D.Axmedov nomzodi boshqaruv raisi tomonidan ma'qullangan taqdirda sinov muddati va tegishli davlat organlari bilan kelishilgan holda rasmiylashtirilishi inobatga olinsin.

5. Tegishli hujjatlar bilan birgalikda ushbu bayonnoma nusxasi "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisiga taqdim etilsin.

6. Bayonnomaning asl nusxasi Xodimlar bilan ishlash boshqarmasida saqlanishi ta'minlansin.

Komissiya raisi



O.Mirtemirov

Komissiya kotibi

N.Mamedova


(Baqorab)



Tanishdilar
D. Axmedov

